Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 378
PEDAGOGIKA

PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'QUV AMALIYOTINING O'RNI

To'lqinjon Zafarjon o'g'li G'ofurov*
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ tolqinjongofurov1995@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada pedagogika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'quv amaliyotining o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'quv amaliyoti jarayonida amaliy, interaktiv va innovatsion metodlardan, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda metodik portfoliodan foydalanish orqali talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Pedagogik, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-uslubiy va ishlab chiqarish amaliyotlarining bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

o'quv amaliyoti, kasbiy kompetentlik, pedagogika yo'nalishi, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik amaliyot, amaliy metodlar, interaktiv metodlar, metodik portfolio, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, refleksiya, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion ta'lim.

DOI: 10.5281/zenodo.21743618

KIRISH

O'quv amaliyoti davomida amaliy metodlardan foydalanish talabalarni real pedagogik faoliyatga jalb qilish va ularning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berdi. Bu metodlar har bir amaliyotchi talabada nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tajribasiga asoslanish, pedagogik mashg'ulotda o'qituvchilik vazifasini bajarish, dars loyihasini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llay olish kabi amaliy ishlarni mustaqil bajarish orqali malakaga ega bo'ladi.

Ta'limiy amaliyot – talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash va mustaqil pedagogik tajriba orttirishga qaratilgan o'qitish shaklidir. Bu usul talabalarni pedagogik, tashkilotchilik va tadqiqotchilik ko'nikmalari bilan ta'minlashga yordam beradi.

Ta'limiy amaliyot turlari: pedagogik amaliyot - talabalar maktab, kollej va universitetlarda dars berish tajribasiga ega bo'ladi. Ushbu amaliyotda talabalar uchun o'qitish jarayonini rejalashtirish, dars mashg'ulot o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilar bilan ishlash kabi ko'nikmalar shakllanadi. Fan o'qituvchilarni dars jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish orqali pedagogik malaka oshirilib boriladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti - pedagogik faoliyatdan tashqari, mutaxassislikka oid sohalarda o'tadi. Amaliyot davomida talabalar korxona, muassasa yoki ta'lim tashkilotlarida ish tajribasini orttiradi. Kasbiy malaka va ish jarayonlarini boshqarish ko'nikmalari shakllanadi.

Ilmiy - tadqiqot amaliyotida - talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, tajribalar o'tkazish va tahlillar olib borish kabi vazifalarni bajarishi, hamda turli metodik ishlanmalar tayyorlash va ilmiy maqolalar yozish malakasi shakllanib borishi, ilmiy anjumanlar, seminarlar va tadqiqot loyihalarida ishtirok etishi bilan xarakterlanadi.

Tashkiliy-uslubiy amaliyot - talabalar ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonlari bilan bog‘liq hujjatlarni yuritish, ta’lim dasturlarini ishlab chiqish amaliyotda o‘zlashtiriladi. Boshqaruv va tashkilotchilik mahorati rivojlanadi.

Ta’limiy amaliyotning ahamiyati esa: pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish – talabalar haqiqiy ta’lim muhitida o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini qo‘llab, o‘qitish tajribasiga ega bo‘ladi;

mustahkam kasbiy tayyorgarlik – amaliy faoliyat orqali kelajakdagi mutaxassislik sohasiga moslashishga yordam beradi;

muammolarni hal qilish va tahlil qilish qobiliyati – real holatlarda pedagogik masalalarni yechish malakasini rivojlantiradi;

tadqiqotchilik qobiliyatini oshirish – ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish va yangi g‘oyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Amaliy metodlar o‘quv amaliyotining har bir turida bajarilishi lozim bo‘lgan metodik topshiriqlarni o‘zida aks ettiradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik faoliyatga samarali tayyorlashdir. O‘qituvchi pedagogik jarayonning asosiy ishtirokchisi sifatida o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni shakllantirish, balki ularni ijodiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatish vazifasini bajaradi. Shu bois, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ularning pedagogika yo‘nalishidagi amaliy pedagogika, pedagogik kompetentlik va pedagogik texnologiya fanlarining nazariy bilimlar yondashuviga asoslangan o‘quv amaliyotini tashkil etishning metodik modelini takomillashtirish lozim.

O‘quv amaliyotida talabalarning ilmiy va ijodiy faoliyati muammosi holatini tahlil qilishda o‘ziga xos tarixiy va ijtimoiy-pedagogik yondashuvdan yaxlit foydalanish ushbu muammoning g‘oyaviy konsepsiyasini rivojlantirish harakatini yo‘lga qo‘yish imkonini berdi (*Ye.Ya. Golant, K.N.Kornilov, M.P.Kashin, Ya.I.Xanbikov, L.M.Pimenova, G.D.Kirillova va boshqalar).* Y.V. Bondarevskaya ta’kidlaganidek, aksiologik, kognitiv, faol-ijodiy va shaxsiy komponentlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida ta’lim mazmuniga singdirish va talabalar xarakter xususiyatining tarkibiy qismiga aylantirish muhim o‘ringa ega *[Bondarevskaya Ye.V. Teoriya i praktika lichnostno-oriyentirovannogo obrazovaniya. – Rostov na Donu: 2000. – S. 204].*

O‘quv amaliyoti jarayonida har bir uslubchi interaktiv ta’lim usullaridan foydalanishi amaliyotchi talabada pedagogik faoliyatni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib, bugungi pedagogik tahlillar va tadqiqotlar ushbu metodlarning samaradorligini tasdiqlamoqda. O‘quv amaliyotida faol metodlardan foydalanish talabalarning o‘z ustida ishlash va pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun ijodiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Faol metodlar – muammoli ta’lim, rolli o‘yinlar, mustaqil izlanish, loyiha, evristik metod va mustaqil izlanish kabilardan iborat bo‘lib, o‘ziga xos didaktik vazifalarni belgilaydi.

Muammoli ta’lim – talabalar oldiga kasbiy pedagogik faoliyatida uchraydigan muammoli vaziyat qo‘yish va uni mustaqil yechishga yo‘naltirish.

Rolli o‘yinlar – talabalarga pedagogik vaziyatlarda qatnashish imkonini beradi.

Mustaqil izlanish – talabalarga ma’lum bir mavzu bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish vazifasi beriladi.

Loyiha metodi - o‘quv amaliyotida talabalarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish va ularning kasbiy malakasini rivojlantirish uchun samaralidir. Loyiha metodi doirasida talabalar: o‘quv-amaliy loyihalar ishlab chiqishi, tadqiqot ishlarini olib borish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish va baholay olishi bilan xarakterlanadi.

“Portfolio” usuli - talabalar o‘quv amaliyoti davomida pedagogik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar (uslubiy ko‘rsatma majmuasi, elektron kundalik, amaliyot dastur, mavzuli taqvim reja, dars ishlanmalar, tezis, shaxsiy grafik bo‘yicha ishlar rejasi, didaktik tarqatmalar, interaktiv resurslar) tayyorlashi va natijalarni tahlil qilish imkoniyatini beradi.

“Portfolio” usulining asosiy maqsadi – amaliyotchi talabalarni turli xil o'quv, ijodiy va o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatida muhim kasbiy faoliyatga erishish natijalarini tahlil qilish va taqdim etish, bo‘lajak o'qituvchining kasbiy o'sishi monitoringini ta'minlashdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchining o‘z ishini, o‘z muvaffaqiyatlarini tahlil qilishi va pedagogik yutuqlarini tizimlashtirishi, o‘z imkoniyatlarini xolisona baholashi, qiyinchiliklarni yengish va yuqori natijalarga erishish yo‘llarini ko‘rishi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot jarayonida samarali natija bergan metodik portfelo usuli talabalar o'quv faoliyatida o'z-o'zini baholash uchun vositadir. O'qituvchilar bilan kasbiy faoliyatning o'z-o'zini tahlil qilish xaritasi ishlab chiqiladi, unda uslubiy portfelning bo'limlari asosida mezon va ko'rsatkichlar aniqlanib boriladi. O'z-o'zini tahlil qilish xaritasidan foydalanib, amaliyotchi talabalar o‘z faoliyatini baholaydi va uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Biriktirilgan uslubchi yordamida amaliyotchi talabalar faoliyatini tahlil qilish va baholash natijalariga ko'ra reyting bahosini belgilaydi. Reytingni aniqlash uchun esa amaliyotchi talabalar uchun quyidagicha imkon beriladi:

amaliyot davomida o‘rgangan kasbiy metodik bilimlar natijalari va ularning amaliyot rahbariyatiga belgalangan xujjat asosida taqdim etish;

kasbiy faoliyatni rivojlantirishga oid zamonaviy o‘qitish uslublari bilan tanishish va namuna sifatida dars ishlanmalari loyihasini ishlab chiqish;

o‘z – o‘zini kasbiy faoliyatga tayyorlovchi o‘quv uslubiy manbalar bilan tanishib borish va amaliyot jarayonida qo‘llab borish;

tajribali o‘qituvchilar darslarini kuzatib borish va olgan metodik bilimlar yuzasidan tezislar shakllantirish;

dars mashg‘ulotlari uchun zaruriy didaktik vositalar to‘plamini ishlab chiqish va amaliyot jarayonida samarali foydalanish.

Reyting maktab ma'muriyatiga ham yordam beradi:

amaliyotchi talabalar va biriktirilgan uslubchi o'qituvchining ish natijalarini doimiy diagnostika qilish;

uslubchi o‘qituvchilar uchun o‘quv amaliyotchilar bilan muntazam ishlash va metodik yordam ko‘rsatish yuzasidan pedagogik shart – sharoitlar yaratish;

amaliyotchi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni qullay usulidan foydalanish maqsadida yakka tartibda va tabaqalashtirilgan jarayoni tashkil etish.

Uslubiy portfolioga asoslangan baholash o'quv faoliyati uchun hisoblashda ham qo'llaniladi.

Amaliyot rahbari va uslubchi tomonidan metodik portfel taqdimoti rejasini ishlab chiqiladi.

1. Portfolio maktab portfeli tanlovi boshlanishidan kamida ikki hafta oldin topshirilishi zarur.

2. Maktab uslubiy kengashi va amaliyot rahbari tomonidan taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqadi va ishlab chiqilgan baholash mezoni asosida baholaydi.

3. Portfelni himoya qilish ochiq va bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- portfelio taqdimoti;
- taqdim etilgan hujjatlarning mohiyati bo'yicha savollarga javoblar;
- amaliyotchi ishning sharhlari bilan tanishtirish;
- himoya natijalarini muhokama qilish;
- amaliyotchi xulosalari va maktab uslubchisini tavsiyalarini etkazish.

. Portfolio taqdimoti uchun 25-30 daqiqa ajratiladi, bu vaqt davomida amaliyotchi talaba ma'lum vaqt ichida bajarilgan ish natijalarini taqdim etishi kerak.

6. Taqdimot sifati quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi: taqdimotning portfel mazmuniga muvofiqligi; o'qituvchi faoliyatining asosiy natijalarini ajratib ko'rsatish; materialni taqdim etish va yetkazib berish sifati; taqdimot mazmuni bo'yicha amaliyot rahbarlari savollariga javob berishda talabaning fikrlash madaniyati. Javoblar qisqa va mazmunli bo'lishi kerak; taqdimot muallifining sharhlovchilarning sharhlari bo'yicha tushuntirishlari.

7. Amaliyotchi talabalar ishining sifati, agar portfelioda taqdim etilgan materiallar quyidagilarni ko‘rsatsa, muvaffaqiyatli hisoblanadi: talabalar metodik birlashmada faol ishtirok etadi; darslarda turli ish uslub va shakllaridan foydalanadi; o'quvchilar va maktab xodimlarining individual xususiyatlarini hisobga oladi; o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari va talabalarning intellektual rivojlanish darajasini diagnostika qilish usullarini biladi, bilish faolligi yuqori, o‘quv darajasini baholash natijalariga ko‘ra barqaror ijobiy natijalar, fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar doimiy ravishda olib boriladi, o‘quv xonalarining o‘quv-uslubiy va texnik jihozlari zamonaviy talablarga javob beradi.

8. G‘olib va sovrindorlar maktab rahbariyati tomonidan taqdirlanishi, hamda ularga professor-o‘qituvchilarning nufuzli ko‘rik-tanlovlarida (tuman pedagogika yutuqlari tanlovi) ishtirok etishlari uchun tavsiyalar beriladi.

Ushbu amaliyotni o‘quv jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi hujjatlar ishlab chiqildi:

maktab ichki nazorati to‘g‘risidagi nizom, ekspert komissiyasini tuzish to‘g‘risidagi buyruq, yig‘ilgan ballar bilan bayonnomalar.

Uslubiy portfelio asosida o'quv faoliyatini baholashdan tashqari, ma'muriyat har oyda ichki maktab nazoratini amalga oshiradi, bu erda nazorat va rahbariyat maktab va o‘qituvchilarning turli yo‘nalishlarda olib borayotgan ishlarini tahlil qiladi. Ushbu nazorat natijalariga ko'ra hisobotlar yoziladi.

Amaliyotchi talabalarni ish tajribasiga ega bo‘lgan fan o‘qituvchilarga biriktirish va ta'limdagi zamonaviy o'zgarishlar bilan tanishish uchun muntazam ravishda darslarni kuzatish va tahlil qilib boradilar.

Uslubiy portfeliolar ustida ishlashda talabalarda raqobatga intilish paydo bo'ladi, bu esa kelgusidagi ish faoliyatida ta'lim sifatini oshirishga ijobiy ta'sir qiladi.

XULOSA

Hozirgi kunda o‘quv amaliyotini loyiha faoliyati orqali tashkil etish tendensiyasi tobora ommalashmoqda. Shu bois, pedagogik loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan metodik qo‘llanmalar, keyslar, nazariy va amaliy vazifalar to‘plami amaliyot jarayonida faol o‘rganishni ta’minlaydi. Bu materiallar orqali talabalar real pedagogik muammolarni hal etish ko‘nikmasini shakllantiradi va ularning ijodiy faolligini oshiradi.

Hozirgi kunda o‘quv amaliyotini loyiha faoliyati asosida tashkil etish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida tobora keng qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuv talabalarni faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki ularni amaliy faoliyatga samarali tatbiq etishga ham yo‘naltiradi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga xizmat qiluvchi metodik qo‘llanmalar, keyslar, amaliy topshiriqlar hamda nazariy materiallar to‘plamidan foydalanish o‘quv amaliyoti samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, loyiha faoliyati asosida tashkil etilgan o‘quv amaliyoti talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, jamoada ishlash, muloqot qilish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va o‘z faoliyatini tanqidiy baholash malakalarini takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada, bunday yondashuv bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning ijodiy faolligini kuchaytirish hamda zamonaviy ta’lim tizimi talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Anisimov P.F [Anisimov P.F.Sistema srednego professionalnogo obrazovaniya: sostoyaniye i problem modernizasii / P.F.Anisimov // Sredneye professionalnoye obrazovaniye. 2002,- № 6. - S. 2-8].

1. Atutov P.R. [Atutov P.R. Metodologicheskiye problemы nasionalno-regionalnogo obrazovaniya / P.R.Atutov, M.M.Budayeva // Pedagogika.2001. № 2. - S.25 - 27].
2. Baljinimayev N.S [Baljinimayev N.S. Buryatskiy respublikanskiy pedagogicheskiy kolledj: Proshloye i nastoyaщyeye / N.S.Baljinimayev, G.B.Bairova. -Ulan-Ude: «Belig», 1999. 58 s].

4. Badmayev B.S [Badmayev B.S. Psixologiya v rabote uchitelya / B.S. Badmayev. — M.: Gumanitarno-izdatelskiy syentr «Vlados». 2000].